



O‘ZBEKISTON AHOLISINING UMUMIY DAROMADLARI: HUDUDIY TAFOVUTLAR VA REAL O‘SISH DINAMIKASI TAHLILI

O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich

Ma‘mun universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dots.v.v

E-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz

Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: yakubov_sanatbek@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholining umumiy daromadlari hajmi, nominal va real o‘shish sur‘atlari, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning hududiy tafovutlari hamda daromadlar dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni tahlil qilinadi. Maqolada daromadlar real o‘shishini baholashda iste‘mol narxlari indeksi omili, hududiy iqtisodiy salohiyat, bandlik tarkibi, mehnat bozori va transfertlarga bog‘liqlik kabi omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *aholi daromadlari, umumiy daromadlar, real o‘shish, aholi jon boshiga daromad, hududiy tafovut, iste‘mol narxlari indeksi.*

KIRISH

Aholi daromadlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda eng muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Daromadlar hajmi va ularning real o‘shishi aholining iste‘mol imkoniyatlari, turmush darajasi, jamg‘arish salohiyati, iqtisodiy faolligi hamda kambag‘allik xavfini baholashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Shu sababli aholi daromadlarini tahlil qilish faqat statistik ko‘rsatkichlarni tavsiflash bilan cheklanmaydi, u mehnat bozori, hududiy rivojlanish, narxlar dinamikasi, ijtimoiy transfertlar va tadbirkorlik daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham ilmiy asosda o‘rganishni talab qiladi.

Nominal daromadlar oshishi har doim ham aholi real xarid qobiliyatining mos ravishda oshishini anglatmaydi. Chunki narxlar o‘shishi daromadlarning real qiymatini pasaytirishi mumkin. Shu bois hisobotda real o‘shish sur‘atlarini hisoblashda narx omillarini chiqarib tashlash maqsadida iste‘mol narxlari indeksi, ya‘ni INI qo‘llanilgani qayd etilgan. Demak, aholi daromadlarining real o‘shish sur‘ati inflyatsiya ta‘siridan tozalangan holda aholining haqiqiy xarid imkoniyatlari qanday o‘zgarganini ko‘rsatadi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar sezilarli darajada farqlanadi. 2026-yil yanvar–mart oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 19 096,7 ming so‘mni, Navoiy viloyatida 10 513,2 ming so‘mni, Buxoro viloyatida 7 335,2 ming so‘mni va Toshkent viloyatida 6 919,6 ming so‘mni tashkil etgan. Ushbu hududlarda ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasidan yuqori bo‘lgan. Aksincha, Namangan viloyatida 4 617,4 ming so‘m, Surxondaryo viloyatida 4 706,5 ming so‘m, Qashqadaryo viloyatida 4 895,9 ming so‘m va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 4 907,3 ming so‘m darajasida bo‘lib, respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan past qayd etilgan.[1]

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, aholining umumiy daromadlari o‘sayotgan bo‘lsa-da, bu o‘shish hududlar bo‘yicha bir tekis kechmayapti. Daromadlar darajasidagi tafovutlar hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, mehnat bozori tuzilmasi, yirik sanoat va xizmat ko‘rsatish markazlari mavjudligi, tadbirkorlik faolligi, migratsiya va transfert daromadlariga bog‘liqlik kabi omillar bilan shakllanadi. Shuning uchun aholi daromadlarini faqat respublika umumiy ko‘rsatkichi orqali emas, balki hududiy kesimda, real o‘shish sur‘atlari bilan birgalikda tahlil qilish muhimdir.

Tadqiqotda statistik-deskriptiv tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu usul orqali aholi umumiy daromadlarining hajmi, nominal o‘shish sur‘ati, real o‘shish sur‘ati hamda aholi jon boshiga umumiy daromadlar ko‘rsatkichlari tavsiflandi. Hududiy taqqoslash usuli orqali O‘zbekiston hududlari bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi o‘zaro solishtirildi. Real o‘shish tahlili qo‘llanildi. real o‘shish sur‘atlarini hisoblashda narx omillari ta‘sirini chiqarib tashlash uchun iste‘mol narxlarini indeksidan foydalaniladi. Shu sababli maqolada nominal va real o‘shish o‘rtasidagi farq iqtisodiy mazmunda izohlandi.[2]

Asosiy qism. 2026-yil yanvar–mart oylarida O‘zbekiston Respublikasi aholisi umumiy daromadlari 263,2 trln so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha nominal o‘shish sur‘ati 115,5 foiz, real o‘shish sur‘ati esa 107,8 foizga teng bo‘ldi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 6,9 mln so‘mni tashkil etib, nominal o‘shish sur‘ati 113,5 foiz, real o‘shish sur‘ati 105,8 foiz bo‘lgan. [1]

1-jadval. Aholi umumiy daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari. (2026-yil yanvar–mart)

Ko‘rsatkich	Hajmi	Nominal o‘shish sur‘ati, %	Real o‘shish sur‘ati, %
Aholining umumiy daromadlari	263,2 trln so‘m	115,5	107,8



Ko'rsatkich	Hajmi	Nominal o'sish sur'ati, %	Real o'sish sur'ati, %
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar	6,9 mln so'm	113,5	105,8

Grafikdan ko'rinadiki, nominal o'sish real o'sishdan yuqori. Bu tabiiy holat, chunki nominal daromadlar puldagi joriy qiymatni aks ettiradi, real daromadlar esa narxlar o'zgarishi ta'siridan tozalangan holda hisoblanadi. Aholining umumiy daromadlari nominal o'sishi 115,5 foiz bo'lgan bo'lsa, real o'sish 107,8 foizni tashkil etgan. Demak, daromadlarning ma'lum qismi narxlar o'sishi ta'sirida kamaygan, ammo shunga qaramay, real daromadlar ham ijobiy o'sishga ega bo'lgan.

2026-yil yanvar–mart oylarida O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar 6 870,2 ming so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida kuzatilib, 19 096,7 ming so'mga teng bo'lgan. Bu respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 2,8 baravar yuqori. Navoiy viloyatida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 10 513,2 ming so'm, Buxoro viloyatida 7 335,2 ming so'm, Toshkent viloyatida esa 6 919,6 ming so'mni tashkil etgan. [1]

1-grafik. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi. (2026-yil yanvar-mart)

	Hajmi, ming so'm	Real o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	6 870,2	105,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 907,3	106,9
Andijon	5 922,3	103,9
Buxoro	7 335,2	104,4
Jizzax	5 259,5	106,0
Qashqadaryo	4 895,9	104,4
Navoiy	10 513,2	108,9
Namangan	4 617,4	103,5
Samarqand	5 917,0	105,9
Surxondaryo	4 706,5	103,6
Sirdaryo	5 478,2	105,9
Toshkent	6 919,6	103,6
Farg'ona	5 297,3	102,9
Xorazm	6 377,1	102,8
Toshkent sh.	19 096,7	110,3



Mazkur grafik hududlar o‘rtasida daromadlar notekis taqsimlanganini yaqqol ko‘rsatadi. Toshkent shahri boshqa hududlardan keskin ajralib turadi. Bu poytaxtda ish haqi darajasi, xizmatlar sektori, moliya, savdo, biznes va yuqori malakali mehnat bozorining konsentratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Navoiy viloyatining yuqori ko‘rsatkichi esa sanoat, kon-metallurgiya va yuqori kapital sig‘imli ishlab chiqarish tarmoqlari ta‘siri bilan izohlanishi ehtimol.

Hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha respublika o‘rtacha darajasidan yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahri, Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyatlarida qayd etilgan. Qolgan hududlarning aksariyatida ko‘rsatkich o‘rtacha respublika darajasidan past bo‘lgan.

3-jadval. Hududlarning respublika o‘rtacha darajasiga nisbatan farqi.

Hudud	Daromad, ming so‘m	Respublika o‘rtachasidan ming so‘m farqi,	Respublika o‘rtachasiga nisbatan, %
Toshkent shahri	19 096,7	+12 226,5	278,0
Navoiy viloyati	10 513,2	+3 643,0	153,0
Buxoro viloyati	7 335,2	+465,0	106,8
Toshkent viloyati	6 919,6	+49,4	100,7
Xorazm viloyati	6 377,1	-493,1	92,8
Andijon viloyati	5 922,3	-947,9	86,2
Samarqand viloyati	5 917,0	-953,2	86,1
Sirdaryo viloyati	5 478,2	-1 392,0	79,7
Farg‘ona viloyati	5 297,3	-1 572,9	77,1
Jizzax viloyati	5 259,5	-1 610,7	76,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 907,3	-1 962,9	71,4
Qashqadaryo viloyati	4 895,9	-1 974,3	71,3
Surxondaryo viloyati	4 706,5	-2 163,7	68,5
Namangan viloyati	4 617,4	-2 252,8	67,2

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, Toshkent shahri respublika o‘rtacha darajasidan 12 226,5 ming so‘m yuqori natija qayd etgan. Navoiy viloyati ham respublika o‘rtacha darajasidan 3 643,0 ming so‘m yuqori. Biroq Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar respublika o‘rtachasidan sezilarli past bo‘lgan.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2026-yil yanvar–mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari ijobiy o‘sish



tendensiyasiga ega bo'lgan. Aholining umumiy daromadlari 263,2 trln so'mni tashkil etib, nominal o'sish sur'ati 115,5 foiz, real o'sish sur'ati esa 107,8 foiz bo'lgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 6,9 mln so'mni tashkil etib, real o'sish 105,8 foizga teng bo'lgan.

Hududiy tahlil Toshkent shahri, Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar respublika o'rtacha darajasidan yuqori ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, Toshkent shahri 19 096,7 ming so'm ko'rsatkich bilan boshqa hududlardan keskin ajralib turadi. Navoiy viloyati ham 10 513,2 ming so'm bilan yuqori daromadli hududlar qatoriga kiradi.

Aksincha, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar respublika o'rtacha darajasidan past bo'lgan. Bu hududlar bo'yicha bandlik sifati, mehnat unumdorligi, tadbirkorlik daromadlari, investitsiya faolligi va transferlarga bog'liqlik kabi masalalarni chuqur tahlil qilish zarur.

Real o'sish sur'atlari bo'yicha Toshkent shahri, Navoiy viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyati yuqori natija qayd etgan. Bu ayrim hududlarda daromadlar hajmi past bo'lsa-da, real o'sish dinamikasi ijobiy ekanini ko'rsatadi. Shu sababli daromad siyosatida faqat daromadlar hajmini emas, balki real o'sish, hududiy tafovut va daromadlar manbalarini kompleks baholash talab etiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda aholi daromadlarining o'sishi ijobiy holat bo'lsa-da, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, past daromadli hududlarda barqaror daromad manbalarini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli ish o'rinlarini yaratish va real daromadlar o'sishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

[1] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari. 2026-yil yanvar–mart oylariga oid dastlabki ma'lumot.” Press-reviz, 2026-yil 30-aprel. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/68043-o-zbekiston-respublikasi-aholisining-umumiy-daromadlari-2025-yil-yanvar-dekabr-2>

[2] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi umumiy daromadlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar. Hisobotning VIII bo'limi. https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578

[3] Jahon banki metodologiyasi asosida uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlaridan foydalanilishi hisobotning uslubiy qismida qayd etilgan. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0ab7f92555cb2786b7215d2fdc986b83-0080012022/original/Uzbekistan-Overview-April-2022-UZB>



[4] Shamansurova, Z., Urinboyev, U., & O'rinboyev, U. B. Priority Directions for Ensuring National Currency Stability Within the Framework of the "Uzbekistan-2030" Strategy. *Advanced Economics and Pedagogical Technologies*, 1(3), 100-106.

[5] Ravshanbekovich, Y. S. A. (2025). THE ROLE OF TAX SYSTEMS IN SUPPORTING SELF-EMPLOYMENT AND FREELANCING. *AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 3(6), 473-476.

[6] Rejabbayevich, N. D. (2025). O 'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGI VA MEHNAT BOZORINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(80), 46-48.